

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KURBANOVA SHAXNOZA YULDASHBAYEVNA

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH
KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish 3

Курбанова Шахноза Юлдашбаевна

Повышение эффективности инновационной деятельности на предприятиях по производству строительных материалов 27

Kurbanova Shakhnoza Yuldashbaevna

Improving the efficiency of innovative activities at construction materials production enterprises..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KURBANOVA SHAXNOZA YULDASHBAYEVNA

**QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH
KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.3.PhD/Iqt4329 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshov Mansur Po'latovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karriyeva Yoqutxon Karimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.S. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalarga investitsiya kiritish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshmoqda. "Global innovatsion indeks" ma'lumotlariga ko'ra "2023-yilda innovatsiyalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq yetish bo'yicha umumjahon reytingida Shveysariya (67,6 foiz), Shvesiya (64,2 foiz), AQSh (63,5 foiz), Buyuk Britaniya (62,4 foiz) va Singapur (61,5 foiz) yetakchi ulushga ega bo'ldi"¹. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki u resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza va energiya samarador mahsulotlar ishlab chiqarish hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Ilg'or innovatsiyalar qurilish sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, yuqori mustahkamlikka ega va qayta ishlashga mos materiallar yaratish, shuningdek, yangi bozor segmentlarini o'zlashtirishni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, qurilish materiallari sanoatidagi innovatsiyaviy yechimlar urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirish, infratuzilmaviy loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va global iqlim o'zgarishi sharoitida ustuvor rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Jahon miqyosida qurilish materiallari sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Innovatsion faoliyat samaradorligi tamoyillarini joriy qilishning ta'sirchan usullari va uslublarini ishlab chiqish va rivojlantirish, innovatsion rivojlanish strategiyalarini joriy yetishni tashkiliy jihatlarini takomillashtirish, mahsulot sifatini zamonaviy talablariga javob berish, innovatsion faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish, uning samaradorligini baholash va aniqlash usullarini takomillashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda qurilish ishlari hajmi ortib borgani sari ushbu sohaning eng muhim material yetkazib beruvchi tarmog'i hisoblangan qurilish materiallari ishlab chiqarishga ham ehtiyoj oshib bormoqda. Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida mamlakatlar aholisining qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun innovatsiyalar asosida mahsulot sifatini oshirish, tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston "Global innovatsion indeks" reytingida 26,2 foiz ko'rsatkich bilan 82-o'rinni egalladi. Qayd etish kerakki, mamlakatimiz ushbu reytingdagi 2022-yilda qayd etgan natijasini saqlab qoldi, bu esa 2021-yildagi 86-o'ringa qiyoslaganda sezilarli o'sish hisoblanadi. Aynan shu jihat mamlakatimizning "innovatsiyalar jadal sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakat"lar toifasiga kirish imkonini berdi"². Bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda korxonalar innovatsion faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda istiqbolli innovatsion loyihalarni tanlash va

¹ www.wipo.int/global_innovation_index/en/2023/

² Global Innovation Index 2022

baholash modelidan foydalanish, qurilish materiallari sanoati korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ekologik yo‘naltirilgan innovatsiyalarga investitsiya kiritish, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida energiya tejamkorligini ta‘minlovchi istiqbolli raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish hajmining ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmonining “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash” deb nomlangan 2-bandi “Sanoatning “drayver” sohalarni rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish” bo‘yicha 48-maqsadida “Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish”³ vazifasi alohida belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 17-noyabrdagi PQ-425-son “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur tarmoqqa tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish masalalari ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Y.Shumpeter, B.Santo, F.Valenta, B.Tviss, P.Druker, L.Vodachek, J.Berkut, P.Doyle, V.Shvandar, L.Szarneski, D.Van Gemert, D.Ashokkumar, R.Cooper, A.Oetzel va boshqa olimlar bu masalalar borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁴.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.

⁴ Шумпетер Й. Теория экономического развития / Й. Шумпетер; Пер. с нем. В.С.Автономова, С.Любского, А.Ю.Чепуренко. – М.: Прогресс, 1982. – 456 с. Санто Б. Инновация как средство экономического развития: Учебник / – пер. с венгр. – М.: Прогресс, 2006. Валента Ф. Управление инновациями / Ф. Валента. – М.: Прогресс, 1985. – 178 с. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями: Пер. с англ. / – М.: Экономика, 1989. 271 с. Drucker, Peter Ferdinand, 1909-Innovation and entrepreneurship. “Perennial Library”.: Book chamber international, 1992. – p.133. Водачек Л. Стратегия управления инновациями на предприятия: Сокр. пер. со

MDH mamlakatlari olimlaridan R. Fatxuddinov, V. Medinskiy, L.Koshkin, A.Kiryakov, G.Goldenshteyn, S.Ilenkova, A.Rusinov, R.Minnixanov, V.Suyazov, A.Yegorshin va boshqalarning ilmiy ishlarida korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etish, uning samardorligini oshirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan⁵.

O‘zbekistonda sanoat korxonalari innovatsion rivojlanishi va uning moddiy-texnik bazasi iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari bo‘yicha S.G‘ulomov, N.Maxmudov, Sh.Zaynutdinov, N.Yo‘ldoshev, M.Ikramov, M.Eshov, R.Gimush, F.Matmurodov, B.Toshmurodova, N.Jiyanova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar⁶. Respublikamizda qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish hamda uning iqtisodiy muammolarini o‘rganishda mamlakatimiz olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada R.Nurimbetov, Sh.Dexqonov, Z.Doniyorova, Sh.Kurbaniyazov, D.Matrizayeva, G.Xonkeldiyeva, A.Metyakubov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini ta’kidlash lozim⁷.

словац.Л. Водачек, О. Водачкова. – М.: Экономика, 1989. – 166 с. Berkhout G. Innovation in a Historical Perspective /G. Berkhout, D. Hartmann, R.Ortt // The Cyclic Nature of Innovation, V.17. – Kidlington: Emerald Group Publishing Limited, Elsevier Ltd., 2007. – P. 7-24. Doyle P. Management: strategy and tactics: Trans. from English / P. Doyle // – St. Petersburg: Peter, 1999. – 560 p. Shvandar V.A. Innovative management / V.A. Shvandar, V.Ya. Gorfinkel. – М.: University. textbook, 2004. – 382 p. Czarnecki L., Van Gemert D.A. Innovation in construction materials engineering versus sustainable development // Bulletin of the Polish Academy of Sciences. Technical Sciences. – 2017. – № 6. – 765–771.; Ashokkumar D. Study of quality management in construction industry // International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology. – 2014. – № 1. – p. 36-43.; Cooper R.G. Maximizing Productivity in Product Innovation[Text] / R.G. Cooper, S.J. Edgett // Research Technology Management. - 2021. - March-April. -P. 47–58.; Oetzel A. Wachstum durch Innovation ist Machbar[Text]// In: Arthur D. Little (Ed.) Management von Innovation und Wachstum. – Wiesbaden: Gabler, 2022.

⁵ Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент / Р.А. Фатхутдинов: Учебник для вузов. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 448 с. Кирьяков А. Г., Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства: Учеб. пособие. Ростов н/Д, 2002. 150-155 с. Медынский В.Г. Инновационный менеджмент / В.Г. Медынский. – М.: ИНФРА – М, 2007. – 100 с. Кошкин Л.И. Менеджмент на промышленном предприятии / Л.И. Кошкин, А.Е. Хачатуров, И.С. Булатов. – Л., 2000. – Электронная версия, “Эколайн”, 2000 / <http://cci.glasnet.ru/mc/>. Комилов С.Д. Инновационное развитие и условия становления инновационного предпринимательства / С.Д. Комилов // Изв. АН РТ, Сер. экономика. – 2004. №3-4. – С.18-28. Гольдштейн Г. Я. Инновационный менеджмент / Г.Я. Гольдштейн. – Таганрог: ТРТУ, 1998. – 132 с. Ильенкова С. Д. Инновационный менеджмент: учебник / С.Д. Ильенкова, Л.М. Гохберг. – 2-е изд.-е., – М, 2004. – 65 с. Русинов А.А. Инновационный потенциал как условие экономического роста региона: монография [Текст] / А.А. Дранаева, Т.В. Кокуйцева, А.А. Русинов; под ред. проф., д.э.н. А.А. Чурсина. – М.: Спектр, 2012. 277 с. Минниханов Р.Н. Инновационный менеджмент в АПК / Р.Н. Минниханов, В.В. Алексеев, Д.И. Файзрахманов, М.А. Сагдиева. – М.: Изд-во МСХА, 2003. – 432 с. Суязов В.Н. Комплексная оценка эффективности инновационного развития научно-производственных организаций: автореф. дис. канд. экон. наук. – Саратов: СГТУ, 2021. – 25 с; Егоршин А.П. и др. Управление инновационным развитием региона. Монография. – Нижний Новгород: НИМБ, 2020.

⁶ Гуломов С.С. «Менеджмент асослари». Дарслик. – Т.: 2010. 316 б.; Махмудов Н.М., Хамидов С.О., Авазов Н.Р., «Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида sanoat тармоқларини ривожлантириш». Монография. Тошкент 2020й / Зайнутдинов Ш.Н., Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон.журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Йўлдошев Н.К. ва бошқалар. Инновацион менежмент. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2012. – 314 б; Икромов М.А., Алимов Е.А. Формирование спроса, как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с . 38-44.; Eshov M. (2020). Effective use of investments in the development of the electric power industry. Архив научных исследований, 1(18). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2172>; Гимуш Р.И., Матмуродов Ф. М. Инновацион менежмент. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. – 144 б; Тошмуродова Б.Э., Жиянова Н.А. “Инновация фаолиятни молиявий рағбатлантириш”. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2006. – 110 б.

⁷ Nurimbetov R.I. Qurilish industriyasi infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Monografiya. TADI. - 2017. 213 b., Dexqanov Sh.A. Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish. Iqt. fanlari bo‘yicha PhD Avtoref. Andijon 2021. 55 b; Doniyorova Z. Sanoat korxonalari rivojlanishining innovatsion strategiyalarini takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) diss.Toshkent – 2022. – 54 b; Kurbaniyazov Sh.K. Qurilish

Amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar muhim ilmiy va uslubiy manba bo'lsa-da, bugungi kunda respublikamizda qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ida mavjud salohiyatini hisobga olib, uning innovatsion faoliyatini rivojlantirish, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridagi innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Tadqiqotimizda esa ayni shu masalalar ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

sanoat korxonasida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashga uslubiy yondashuvlarni tadqiq etish;

sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

respublikamiz qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion faoliyatni tashkil etishning joriy holatini tahlil qilish;

“Ohangaronsement” AJ da innovatsion loyihalarni joriy etish amaliyotini tahlil qilish va baholash;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini shakllantirish;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqot obyekti “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi “Ohangaronsement” AJ hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra “innovatsion faoliyat” tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali

materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi: i.f.f.d. avtoref. T.: 2018. – 56 b.; Matrizayeva D.Yu. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishni takomillashtirish (“O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi misolida): i.f.f. d. avtoref. T.: 2021. – 61 b.; Хонкелдиева Г.Ш. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида корпорацияларни бошқаришнинг илмий-методологик асослари. и.ф.д. (DSc) дисс. автореферати. – Т: ТДИУ, 2018. 56 б.; Мэтякубов А.Дж. Қурилиш материаллари sanoatiga инвестицияларни жалб этишнинг бошқариш самарadorligini ошириш “Ўзқурилиш материаллари” АЖ мисолида, и.ф.ф.д. PhD дисс. – Т.: 2019. 56 б.

foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlovchi yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini yaratish va joriy etish jarayonini korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish va bozordagi raqobat ustunligini mustahkamlash jihatidan takomillashtirilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalarga investitsiya kiritishda jami kapital qo'yilmalarida ekologik innovatsiyalarga ajratiladigan ulush ($U_{EI} = 10-20\%$), daromadning ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritish ulushi ($U_{ETS} = 5-10\%$), ekologik standartlarga javob beradigan uskunalarni uchun ajratiladigan investitsiya (*yillik investitsiya budjetining*

$\geq 30\%$) miqdoriy chegaralarini ta'minlash orqali atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

“O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida energiya tejamkorligini ta'minlovchi istiqbolli raqamli texnologiyalardan foydalanishda Energy Management System (EMS) tizimlarini joriy qilish hisobiga umumiy energiya sarfini kamaytirish ($15\% \leq EMS \leq 40\%$), sement va qurilish materiallari ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlar ulushi ($U_{ATJ} \geq 50\%$), raqamli simulyatsiya va modellashtirish orqali resurs tejamkorlikni oshirish ($RSM \geq 20\%$) orqali ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish taklifi asoslangan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ko'p omilli ekonometrik model asosida “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish hajmining 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari asoslangan;

“O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatining hozirgi holatiga baho berilib, mazkur tarmoqni rivojlantirish va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi asoslangan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini innovatsion rivojlantirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish choralari taklif etilgan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirish va investitsiya kiritishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion salohiyati baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha foydalanilgan ma'lumotlarning “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi va uning tizimidagi korxonalarining davriy hisobot va statistik to'plamlaridan olinganligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, ishda umumtadqiqot usullardan foydalanilganligi, xulosada keltirilgan taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, ularning

amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli korxonalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga oid ilmiy xulosalardan “Sanoat iqtisodiyoti” yo‘nalishida bajariladigan ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida raqobatbardoshligini oshirishda korxonalar faoliyatini rejalashtirish va innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida “Korxonalar iqtisodiyoti”, “Qurilish korxonalar iqtisodiyoti” fanlaridan ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “innovatsion faoliyat” tushunchasining iqtisodiy mazmunini iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlovchi yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini yaratish va joriy etish jarayonini korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish va bozordagi raqobat ustunligini mustahkamlash jihatidan takomillashtirish borasidagi nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Innovatsion iqtisodiyot” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 2-fevraldagi 44-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida talabalarda yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini yaratish va joriy etish jarayonini korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish va bozordagi raqobat ustunligini mustahkamlash jihatidan takomillashtirilgan innovatsion faoliyat tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik yo‘naltirilgan innovatsiyalarga investitsiya kiritishda jami kapital qo‘yilmalarida ekologik innovatsiyalarga ajratiladigan ulush ($U_{EI} = 10-20\%$), daromadning ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritish ulushi ($U_{ETS} = 5-10\%$), ekologik standartlarga javob beradigan uskunalarni uchun ajratiladigan investitsiya (*yillik investitsiya budjetining $\geq 30\%$*) miqdoriy chegaralarini ta’minlash orqali atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi 2024-yil I choragiga mo‘ljallangan investitsiya dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 19-dekabrda 04-05/3963-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi “Ohangaronement” AJda sement ishlab chiqarishning atrof-muhitga tashlamalari va ekologiyaga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun 18,0 mln.dollar investitsiya kiritilishiga imkon yaratgan;

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida energiya tejamkorligini ta’minlovchi istiqbolli raqamli

texnologiyalardan foydalanishda Energy Management System (EMS) tizimlarini joriy qilish hisobiga umumiy energiya sarfini kamaytirish ($15\% \leq EMS \leq 40\%$), sement va qurilish materiallari ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlar ulushi ($U_{ATJ} \geq 50\%$), raqamli simulyatsiya va modellashtirish orqali resurs tejamkorlikni oshirish ($RSM \geq 20\%$) orqali ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish taklifi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan Innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 19-dekabr-dagi 04-05/3963-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi “Ohangaronsement” AJ da yuklash sexi va sement tegirmonlarini modernizatsiya qilish uchun 28,4 mln.dollar investitsiya kiritilishiga imkon yaratgan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish hajmining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari “Qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 19-dekabr-dagi 04-05/3963-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining strategik rejalari ko‘rsatkichlarining aniqlik va o‘zaro muvofiqlik darajasini oshirish imkonini berib, natijada korxonaning umumiy mahsulot hajmi 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 3,5 barobarga oshishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betdan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, dissertatsiya ishining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion jarayonlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarining nazariy jihatlarini tadqiq etilgan, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion rivojlanish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilgan.

Dissertant tomonidan, “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalariga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tadqiq etilgan. Innovatsiya tushunchasiga turli xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar taqdim etilgan.

“Innovatsion faoliyat” atamasining na ilm-fan, na xalqaro tashkilotlar va davlat tomonidan yagona talqini qabul qilinmaganligini qayd etgan holda, yuqorida keltirilgan ta'riflar amaliyotda qo'llaniladi va bir-birini to'ldirish orqali zamonaviy dunyo sharoitida innovatsion faoliyatning mazmun-mohiyatini yetarlicha to'liq ochib beradi. Yuqorida tavsiflangan nazariy ishlarda innovatsion jarayonlarning kelib chiqish manbalari va xarakteri, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni boshqarishning fundamental muammolari tadqiq etilgan. Shunday qilib, innovatsion faoliyat bir necha tarkibiy qismlardan iborat (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion faoliyat tarkibiy qismlari⁸

Innovatsion faoliyat qurilish materiallari sanoati korxonalarini iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. U ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, bozor talablariga moslashuvchanlik, ekologik barqarorlik va eksport salohiyatini oshirish kabi korxonaning asosiy jihatlarga ta'sir qiladi.

⁸ Muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda dunyodagi eng muhim ijtimoiy masalalardan biri – aholini uy-joy bilan ta‘minlash muammosi hisoblanadi. Qurilish tarmog‘ining barqaror rivojlanishi, aholining sifatli turar joy bilan ta‘minlanishi ushbu soha rivojiga bevosita aloqador qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini barqaror shartlar asosida rivojlantirish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Qurilish sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi va barqaror rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq qurilish sanoati uzoq vaqtdan beri o‘zgarish va innovatsiyalarga moyilligi past bo‘lgan soha deb hisoblanadi. Shuningdek, dissertatsiya ishida innovatsiyalarning tasnifiy guruhlarini taqsimlashda ham turlicha yondashuvlar mavjud. Iqtisodchi-tadqiqotchilar innovatsiyalarning paydo bo‘lish sabablari, qo‘llanish doirasi, bozor ulushini qamrab olish va hokazolarni tavsiflovchi eng muhim belgilarini tasniflash uchun asos qilib oladilar.

Dissertant tomonidan ilmiy adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan taklif etilgan qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari tizimlashtirilgan va amaliy tajribani umumlashtirish asosida qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Sanoat korxonalarida innovatsiyalarining turlari va mohiyati⁹

Innovatsiya turlari	Iqtisodiy mohiyati	Innovatsiya shakli
Mahsulot innovatsiyalari	Yangi talabni shakllantirish. Yangi geografik bozorni yoki yangi segmentni o‘zlashtirish. Sotuvlar hajmini ko‘paytirish.	Yangi funksional va foydalanuvchi xususiyatlari. Mavjud mahsulotdan foydalanishning yangi usuli. Yangi xom ashyo yoki yangi tarkibiy qismlarni qo‘llash. Mahsulotning sifatini yaxshilovchi xususiyatlar.
Jarayon innovatsiyalari	Ishlab chiqarish tannarxi va logistika qiymatini pasaytirish.	Ishlab chiqarish, yetkazib berish va yordamchi faoliyatning yangi usullari: yangi uskunalardan foydalanish, yangi dasturiy ta‘minot (DT) dan foydalanish, yangi jarayonlar va texnologiyalardan foydalanish.
Marketing innovatsiyalari	Yangi bozorlarni ochish, bozor ulushini oshirish. Sotuv hajmini oshirish.	Yangi marketing usuli: dizayndagi o‘zgarishlar, joylashtirishning yangi usullari, mahsulotni targ‘ib qilish va/yoki narx belgilash.
Tashkiliy innovatsiyalar	Ma‘muriy yoki operatsion xarajatlarni qisqartirish. Notovar aktivlarga kirishni kengaytirish. Xodimlarning ish qobiliyati va motivatsiyasini oshirish.	Yangi tashkiliy usul: ishbilarmonlik amaliyoti, ish o‘rinlarini tashkil etish, tashqi aloqalar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda korxonalarda innovatsion jarayonlarni tashkil etish samaradorligining mezonlari innovatsion faoliyat xarajatlari va innovatsion mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlarni taqqoslash imkonini

⁹ Muallif ishlanmasi

beradigan iqtisodiy parametrlardir. Korxonaning daromadlilik va rentabelligi maqsad sifatida emas, balki innovatsion faoliyatni amalga oshirishning eng muhim sharti va natijasi sifatida qaralishi lozim. Innovatsion jarayonni boshqarish sanoat korxonasi barcha tashqi va ichki elementlarining samarali va muvofiqlashtirilgan ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Innovatsion faoliyatni iqtisodiy tahlil qilish innovatsion faollik darajasini, innovatsion faoliyat samaradorligini va korxonaning barqarorligini oshirish uchun ichki iqtisodiy zaxiralarni aniqlashning eng muhim vositasidir. 2-jadvalda innovatsion faoliyatni baholashning ko'rib chiqilgan usullarining afzalliklari va kamchiliklarini umumlashtiramiz.

2-jadval

Innovatsion faoliyatni baholashda mavjud usullarning afzalliklari va kamchiliklari¹⁰

Mazmuni	Manba	Afzalligi	Kamchiligi
Sanoat korxonasi innovatsion faoliyatini baholash metodikasi	Freeman C. The economics of industrial innovations[Text] / C. Freeman, L. Soete. – Cambridge, MIT Press, 1999.	“Muallif innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar haqida aniq fikrlarga ega va ushbu omillar ta'sirini hisobga olish yo'llarini taklif qiladi”.	“Innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'sir qiluvchi ba'zi omillarni hisoblash va baholash uchun formulalar taklif qilinmagan”.
Korxonaning innovatsion faoliyatini baholash metodikasi	Cooper R.G. Maximizing Productivity in Product Innovation[Text] / R.G. Cooper, S.J. Edgett // Research Technology Management. — 2008. — March-April. — P. 47–58.	“Metodologiya keng qamrovli bo'lib, iqtisodiy va matematik formulalar bilan qo'llab-quvvatlanadi”.	“Innovatsiyalar holatini belgilovchi omillarni baholash mexanizmi doirasida qo'llaniladigan juft taqqoslash usuli inson omilining ta'sirini o'z ichiga olgan ekspert baholashlariga asoslanadi va korxonaning innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholashning ob'ektivligini va ustuvorlik bo'yicha reytingini shubha ostiga qo'yadi”.
Innovatsion loyihalarning innovatsionligi va raqobatbardoshligini baholash metodikasi	Moore J.F. The death of competition: leadership and strategy in the age of business ecosystems[Text] / J.F. Moore. — New York: Harper Business, 1997.	“Mualliflar mahsulotning raqobatbardoshligini baholash bilan birga innovatsionlikni baholashni ham o'z ichiga olgan”.	“U inson omilining ta'sirini o'z ichiga olgan ekspert baholashlariga asoslanadi va baholashning ob'ektivligini shubha ostiga qo'yadi”.
Innovatsion loyiha samaradorligini baholash va vaqt o'tishi bilan mahsulot sifatining o'zgarishini hisobga olish usullari	Фролов А.Л. Оценка эффективности инновационного развития предприятия. – Финансы и статистика, 2005.	“Murakkab xarakterga ega bo'lgan metodologiya innovatsion loyiha sifatiga vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchi sifatida yondashishni taklif qiladi”.	“Innovatsion loyihani faqat investitsiya loyihasi sifatida baholashga yondashuv, bu uning bilim talab qiladigan loyihalash tashkilotlarida foydalanishni cheklaydi”.
Korxonaning innovatsion faoliyatini baholash usuli	Baxtiyorov B. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.d (DcS) diss.Toshkent-2023.	“Innovatsion hablarni tashkil etish orqali sanoat korxonalarida amaliyotga joriy etilayotgan yangi innovatsion loyihalarni investitsion samaradorligini baholash taklif etiladi”.	“Byudjet, tijorat va milliy iqtisodiy samaradorlikni baholash, qoida tariqasida, loyihani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin amalga oshiriladi va umuman korxonaning innovatsion faoliyatiga emas, balki ma'lum bir loyihaga tegishli”.

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Innovatsion faoliyatni baholashdagi yondashuvlarni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, u korxonada samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish vositasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, korxonada menejerlari, innovatsion bo'limlar va mutaxassislarining kasbiy mahorati va ishbilarmonlik fazilatlarini baholash uchun ishlatiladi.

Xorijiy mamlakatlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yetakchi kompaniyalarning korporativ va innovatsion strategiyalarining asosiy tamoyillari va maqsadlari, innovatsion ishlanmalarni olish manbalari, ilmiy-tadqiqot bo'limi va boshqa biznes bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tamoyili, innovatsion ishlanmalarni sinovdan o'tkazish uchun eksperimental aktivlarning mavjudligi, innovatsion ishlanmalarni boshqarish uchun kadrlar siyosati va kompaniyaning innovatsion rivojlanishini moliyalashtirish tamoyillari va manbalari kabi mezonlar asosida tadqiq etildi. Tadqiqot natijasida, innovatsion loyihalar uzoq muddatli istiqbolda o'sishining asosiy manbai hisoblanishi, innovatsion loyihalarning asosiy yo'nalishlari – mijozlar uchun innovatsion yechimlar ustida ishlash, joriy ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va qurilish materiallarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni izlab topish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda loyihaviy yondashuv, innovatsiyalarni joriy etish jarayonining globallasuvi ekanligi aniqlandi. Sanoat korxonasi innovatsion faolligini namoyon etishidagi asosiy to'siq faqatgina resurslarning yetishmasligi emas: innovatsion salohiyat resurslar, imkoniyatlar, qobiliyatlar va ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisiga qaratilgan. Hatto mavjud resurslar va ishlab chiqarishning ko'plab amalga oshirilgan hamda amalga oshirilmagan imkoniyatlari bo'lsa-da, innovatsion salohiyatdan foydalanish qobiliyatining yo'qligi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va innovatsion faoliyat bilan bog'liq ishlarni bajarishga imkon bermaydi.

Dissertatsiyaning **“Respublika qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirishning tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion rivojlanishning joriy holati tahlil qilingan, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan hamda qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyat samaradorligi baholangan.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati milliy iqtisodiyotning bugungi holati va uni rivojlantirish salohiyatini belgilab beruvchi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Qurilish sanoati mahsulotlari muhandislik infratuzilmasining rivojlanishini ta'minlab, turli sohalardagi korxonalarining logistika imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Inson hayoti uchun hammilliy iqtisodiyot rivojlanishi uchun ham zarur bo'lgan uy-joy, sanoat, yo'l, energetika va boshqa ko'plab obyektlarni barpo etish samaradorligi ham ushbu tarmoq mahsulotlariga bog'liq (3-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlar¹¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2019-yilni 2023-yilga farqi (+;-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
YAIM, mlrd.so‘m	532712,5	605514,9	738425,2	896617,9	1066569	+987861,4
Qurilish ishlari hajmi, mld.so‘m	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9	149864,1	+78707,6
Qurilish korxonalarini soni	37 942	42 923	45 603	48 874	53 050	+15 108
Qurilish sohasida ish bilan bandlar soni, ming kishi	1324,6	1305,6	1350,8	1314,3	1360, 7	+36
Sanoat ishlab chiqarish hajmida qurilish materiallari ishlab chiqarishning ulushi, %	5,6	4,9	5,1	5,6	5,9	+0,3

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra mamlakatimizda YAIM da qurilish ishlarining ulushi 2023-yilda 6,2 foizni tashkil qiladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmida qurilish materiallari ishlab chiqarishning muntazam o‘shishga ega bo‘lib, ulushi 5,9 foizga yetdi. 2018-2023-yillarda qurilish tarmog‘ining o‘shishi jadal sur‘atlar bilan amalga oshgan va ushbu ko‘rsatkich o‘rganilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega ekanligini bildiradi.

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibida ikki yuzga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo‘lib, ushbu korxonalar tomonidan 2024-yilda 37,2 trln so‘mlik qurilish materiallari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Investitsiya dasturlari doirasida 2024-2026-yillarda qiymati 4,5 mlrd dollarlik 542 ta yangi loyiha amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur uyushma va uning tarkibidagi korxonalarda tayyor mahsulotlar tarkibi quyidagi jadvalda berilgan (4-jadval). Sohadagi asosiy yo‘nalishlardan biri sement ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra esa respublikamizda yiliga 32,8 mln tonna (2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 6,6 mln tonna (125 foiz) o‘shish) sement ishlab chiqarish quvvatiga ega 37 ta korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. 2023-yilda sement ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagiga nisbatan 74,1 foizga, aholi jon boshiga ishlab chiqarish esa 55,6 foizga oshgan. 2023-yilda O‘zbekistonda 15,5 million tonna sement ishlab chiqarildi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sement miqdori 431 kg ga yetgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir ishlab chiqarish korxonasida innovatsion faoliyatdan oqilona foydalanish ustuvor vazifa hisoblanadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmining rivojlanishi ularning doimiy harakatiga bog‘liqdir.

¹¹ www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

**“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalari tomonidan
2019-2023-yillarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar tarkibi
(mlrd.so‘m/ulushi%)¹²**

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar					2019-yilni 2023-yilga farqi (+; -)
		2019	2020	2021	2022	2023	
1	Qurilish materiallari, jami	16841,2	21890,7	23525,1	25187,4	29888,7	+13047,5
2	Bog‘lovchi materiallar (<i>sement, gips, ohak, quruq aralashmalar va boshqalar</i>)	7540	9850	10703,9	11687,0	14017,8	+13277,8
		44,8%	45,0%	45,5%	46,4%	46,9%	+2.1%
3	Bezatish materiallari (keramik plita, linoleum, oboy (<i>gulqog‘oz</i>), <i>lok-bo‘yoq materiallari va boshqalar</i>)	2490	3260	3552,3	3828,5	4573,0	+2083
		14,8%	14,9%	15,1%	15,2%	15,3%	+0,5%
4	Tom yopqich materiallari (<i>shifer, yumshoq tom yopqichlar, cherepitsa va boshqalar</i>)	2100	2750	2988	3249	3856	+1756
		12,5%	12,6%	12,7%	12,9%	12,9%	+0,4%
5	Maxsus qurilish materiallari (<i>sanitar-texnik buyumlar, qurilish oynasi, polimerlar va boshqalar</i>)	580	760	846,9	906,7	1135,8	+555,8
		3,4%	3,5%	3,6%	3,6%	3,8%	+0,4%
6	Devorbop materiallar (<i>qurilish g‘ishti, sendvich panel, gazoblok va boshqalar</i>)	2000	2620	2846,5	2770,6	2988,9	+988,9
		11,9%	12,0%	12,1%	11%	12,2%	+0,3%
7	Noruda qurilish materiallari (<i>qum, chaqiqtoosh va boshqalar</i>)	540	620	658,70	730,43	896,66	+356,66
		3,2%	2,8%	2,8%	2,9%	3,3%	+0,1%
8	Boshqa qurilish materiallari	1591	2030	1929,06	2014,99	2420,98	+829,98
		9,4%	9,3%	8,2%	8%	8,1%	-1,3%

Uyushma tomonidan ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallari hajmi barqaror o‘shish sur‘atini ko‘rsatib, 2023-yilda jami mahsulot hajmi 29888,7 mlrd.so‘mga yetdi. Tayyor mahsulotlar ichida bog‘lovchi materiallar, jumladan, sement ishlab chiqarish hajmi eng ko‘p ulushga (46,9%) ga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya ishida korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini o‘rganish maqsadida, mamlakatimizdagi yigirmata yirik soliq to‘lovchilaridan biri bo‘lgan, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi “Ohangaronsement” AJ faoliyati tadqiq etilgan (5-jadval). Ushbu korxonada turli navli va markali sement (yuqori sifatli portlandsement, shlakportlandsement), asbest quvurlar, o‘tga chidamli g‘isht ishlab chiqaradi hamda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi sement sanoatida ishlab chiqarish usuli bo‘yicha ikki xil: yiliga 2 million tonna quvvatga ega an’anaviy “ho‘l” usuldagi hamda yiliga 3 million tonna quvvatga ega yangi yuqori

¹² “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

texnologiyali “quruq” usuldagi zavodga ega bo‘lgan noyob korxonasi hisoblanadi. Korxonaning bozor ulushi 2022-yil holatiga ko‘ra 11 foizni tashkil etadi. “Qizilqumsement” AJ 21 foiz bilan eng katta ulushga ega bo‘lsa, 10 foiz “Bekobodsement”, 6 foiz “Sherobod sement zavodi” MCHJ va 4 foiz “Quvasoysement” ulushiga to‘g‘ri keladi.

5-jadval

“Ohangaronsement” AJning moliyaviy natijalari tahlili (mlrd.so‘m)¹³

Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yilni 2023-yilga farqi (+;-)
Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	1012,2	909,5	1100,2	+88
Sotilgan mahsulot tannarxi	533,3	590	748,2	+214,9
Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	479	319,4	352	-127
Davr xarajatlari, shu jumladan:	274	207	336,5	+62,5
Sotish xarajatlari	11,2	15,2	23,1	+11,9
Ma‘muriy xarajatlar	19,3	41,5	94,2	+74,9
Boshqa operatsion xarajatlar	243,1	149,5	219,1	-24
Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar	9	72,5	196	+187
Asosiy faoliyatdan olingan foyda	214	184,9	211,5	-2,5
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	10	40	17,1	+7,1
Umumxo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijasi	224	224,9	228,6	+4,6
Daromad solig‘i	55,1	29,3	29	-26,1
Hisobot davrining sof foydasi	168,9	195,6	199,6	+30,7

Yuqoridagi jadvalda “Ohangaronsement” AJning 2021-2023-yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, oxirgi 3 yildagi moliyaviy natijalarni ko‘rish mumkin. Tahlil natijalariga ko‘ra aksionerlik jamiyatida sotilgan mahsulot tannarxi, davr xarajatlari, ma‘muriy xarajatlarning ortib borganini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri 2021-yil boshida “Ohangaronsement” korxonasi negizida qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha innovatsion sanoat klasteri tashkil etish yuzasidan amaliy ishlar boshlangan va uning asosiy loyihasi – “quruq” usulda sement ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali yangi zavod ishga tushirilgan.

Korxonaning asosiy xo‘jalik faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lgan innovatsion faoliyatni ham, korxonaning o‘z iqtisodiy resurslari hisobiga amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatni ham tavsiflovshi ko‘rsatkichlar majmui taklif etildi:

1. Innovatsion faoliyat portfeli ko‘rsatkichlari bloki;

- innovatsion loyihalar doirasida amalga oshirilgan ishlar hajmi va ularning jami amalga oshirilgan ishlar hajmidagi ulushi foizda.

II. Innovatsion faoliyat doirasida o‘z ishlari ulushi ko‘rsatkichlari bloki;

- barcha innovatsion loyihalarni amalga oshirish doirasida o‘z ishlarining hajmi va ulushi;

- innovatsion loyihalarni amalga oshirish doirasida o‘z ishlarini diversifikatsiya qilish ko‘rsatkichi.

¹³ “Ohangaronsement” AJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

III. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish muddatlari ko‘rsatkichlari bloki;

- innovatsion loyihalarni amalga oshirishning o‘rtasha muddati;
- haqiqiy muddat rejaga nisbatan sezilarli darajada siljigan innovatsion loyihalar foizi.

IV. Innovatsion mahsulotlar/loyihalarni amalga oshirishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bloki.

- amalga oshirilgan innovatsion loyihalarning umumiy iqtisodiy samarasi.

Quyida tadqiqot obyektida innovatsion faoliyatni baholash ko‘rsatkichlari tizimining qiymatlari berilgan (6-jadval).

6-jadval

“Ohangaronsement” AJ da innovatsion faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimining qiymatlari¹⁴

Yil	Innovatsion faoliyat portfeli			Innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida korxonalar ulushi				Innovatsion loyihalarni amalga oshirish muddati		Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi
	Korxonaning umumiy amalga oshirilgan loyihalar hajmi, ming dollar	Innovatsion loyihalar doirasida amalga oshirilgan ishlar hajmi, ming dollar	Innovatsion mahsulotlarni sotishning umumiy hajmidagi ulushi, %	Barcha loyihalar bo‘yicha korxonalar faoliyati hajmi, ming dollar	Innovatsion loyihalar doirasidagi korxonalar faoliyati hajmi, ming dollar	Barcha loyihalarni amalga oshirish doirasida korxonalar ishlarining ulushi, %	Innovatsion loyihalarni amalga oshirish doirasida korxonalar faoliyatining ulushi, %	Innovatsion loyihalarni amalga oshirishning o‘rtacha muddati, kun	Rejadagi muddatlarga nisbatan haqiqiy muddati sezilarli darajada o‘zgargan loyihalar ulushi, %	Amalga oshirilgan innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, ming dollar
Jami	18 000	5886	32,7	5022	1206,63	20,5	27,9	552	16,7	19980
2023	6796,8	4418	65,0	2018,65	852,6586	19,3	29,7	285	16,7	7544
2024	8528,4	1458	17,1	1842,134	315,005	21,6	21,6			9466
2025	2674,8	262	9,8	534,96	0	0	20			2969

Ko‘rsatkichlar tizimi kompaniyaning innovatsion faoliyatini, shu jumladan daromadli shartnomalarni bajarish doirasida amalga oshiriladigan faoliyatini baholashni taklif qiladi, bu esa asosiy xo‘jalik faoliyatini yuritish doirasida mahsulotni ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan korxonalarining asosiy farqini hisobga olish imkonini beradi. Ushbu tizimni ishlab chiqilgan metodika va algoritmlar bilan birgalikda qo‘llash qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning buzilishini oldini olishga imkon beradi, bu esa o‘z navbatida innovatsion faoliyatini boshqarish jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida “**Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish korxonalarida raqamli innovatsiyalar asosida energiya tejash tizimini loyihalashni takomillashtirish, qurilish

¹⁴ “Ohangaronsement” AJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

materiallari sanoati korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini prognozlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda qurilish materiallari tarmog'ida iqtisodiy islohotlarni yana ham chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiyalash, jahon bozorida xaridorgir va raqobatdosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini ko'paytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida "2022 – 2026-yillarda 5 mlrd AQSH dollarlik loyihalarini amalga oshirish orqali qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish"¹⁵ strategik vazifa sifatida belgilangan.

Shu jihatdan O'zbekistonda qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usuliga bosqichma-bosqich o'tish, korxonalarining o'zlariga qarashli xomashyo bazasini yaratish, xomashyo qazib olishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va uni eksportga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot holiga keltirgunga qadar chuqur qayta ishlash, xalqaro bozorlarda chuqur marketing tadqiqotlarini olib borish orqali tarmoq korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish taqozo etilmoqda.

Sanoat korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etishning samaradorlik mezonlari aniqlandi. Sanoat korxonasida ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini baholash metodikasi uchta yo'nalish bo'yicha guruhlangan ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish asosida ishlab chiqildi. Metodika korxonada ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligining umumlashtirilgan indeksleri va integral indeksini hisoblash imkonini beradi. Sanoat korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligining quyidagi mezonlarini ajratib ko'rsatish taklif etiladi:


1. Atmosfera havosini, suv resurslarini muhofaza qilish, ishlab chiqarish chiqindilarini utilitatsiya qilish va ekologik innovatsiyalarga boshqa investitsiyalar bilan bog'liq korxonaning ekologik-investitsiya faoliyati.

2. Ekologik innovatsiyalarni joriy etish natijasida oqava suvlarning ifloslanishi, ifloslantiruvchi moddalarning atmosferaga chiqarilishi, shuningdek, chiqindilarni utilitatsiya qilish natijasida korxonaning ekologik yuklamasining o'zgarish dinamikasi.

3. Atrof-muhitga salbiy ta'sirning oldini oluvchi tugallangan ekologik innovatsiyalarni o'z ichiga olgan korxonaning innovatsion-ekologik faolligini belgilovchi omillar majmui. Sanoat korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini baholash uslubiyoti yuqorida taklif etilgan mezonlarga muvofiq yo'nalishlar bo'yicha guruhlangan statistik va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilishga asoslangan.

Ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sanoat korxonasining ekologik-innovatsion faolligini kompleks baholash bosqichlari ishlab chiqildi (2-rasm).

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. lex.uz



2-rasm. Sanoat korxonasi ekologik-innovatsion faolligini kompleks baholash bosqichlari¹⁶

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ekologik innovatsiyalar tasnifiga muvofiq korxonada mavjud bo'lgan ekologik innovatsiyalar loyihalari tahlil qilinadi, ularning har biri uchun ma'lum bir shablon bo'yicha ekologik innovatsiyalar loyihasi xaritasi tuziladi. Tahlil qilinayotgan korxonalarda bajarilgan ekologik innovatsiya loyihalaridan birining xaritasi namunasi 3-rasmda keltirilgan.

№	Loyiha nomi	Ko'mir yoqilg'isidan foydalanishda filtr tizimlarini modernizatsiya qilish		
1.	Loyiha maqsadi	<input checked="" type="checkbox"/> Atrof-muhitga tashlamalarni kamaytirish	<input type="checkbox"/> Tashkiliy ekoinnovatsiya	<input type="checkbox"/> Ekologik mahsulot
2.	Loyiha ko'lami	<input type="checkbox"/> Global	<input type="checkbox"/> Hududiy	<input checked="" type="checkbox"/> Mahalliy
3.	Kutilayotgan natija	<input type="checkbox"/> Iqtisodiy	<input checked="" type="checkbox"/> Ekologik	<input type="checkbox"/> Ijtimoiy
4.	Loyiha samaradorligi	<input checked="" type="checkbox"/> Xarajat talab qiladi		<input type="checkbox"/> Xarajatlarni kamaytiradi
5.	Bosqich	<input checked="" type="checkbox"/> Ishlab chiqarish bosqichida		<input type="checkbox"/> Iste'mol bosqichida
6.	Energiyatejamkorlik	<input type="checkbox"/> Mavjud emas		<input checked="" type="checkbox"/> Mavjud

3-rasm. Ekologik innovatsion loyiha namunaviy xaritasi¹⁷

Shu sababli mamlakatimizda ham ko'mir yoqilg'isiga o'tish borasida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi loyiha tashabbuskori ham "Ohangaronement" AJ hisoblanadi. Ushbu loyihaning asosiy g'oyasi sement ishlab chiqarish jarayonida tabiiy gaz yoqilg'isi o'rnida ko'mir yoqilg'isidan foydalanish

¹⁶ Muallif ishlanmasi


¹⁷ Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

hisoblanadi. Shu maqsadda mahalliy tabiiy xomashyolarni xo‘jalik aylanmasiga jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish asosida yuqori ekologik va energetik parametrlarga ega bo‘lgan bir qator qurilish materiallari, jumladan, gazobeton bloklari va plitalari, shuningdek, energiya tejamkor fibrosegment plitalari ishlab chiqarishni tashkil etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, ushbu qurilish materiallarining energiya samaradorligi obyektlardan foydalanish jarayonida energiya resurslarining mahsulot birligiga nisbatan kamroq sarflanishi bilan ifodalanadi.

Energetika va energiya tejash sohasidagi davlat siyosati doirasida sanoat tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat energiya tejash dasturlarini ishlab chiqayotgan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari energiya tejashning yuqori ahamiyatini tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtda sanoatni yangi texnologik tizimga o‘tkazishda energiyani tejash muammosi yana dolzarb bo‘lib qoldi. To‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etish murakkab va ko‘p komponentli vazifadir. Uning yechimi energiya tejashning integratsiyalashgan tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Integratsiyalashgan energiya tejash tizimi (IET) deganda, amaldagi energetika xo‘jaligiga, shuningdek, korxonaning muhandislik va energetika kommunikatsiyalariga integratsiya qilinadigan va energiya samaradorligini boshqarish funksiyalarining butun spektrini avtomatlashtirishni, shuningdek, uning asosiy ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida doimiy monitoring qilishni ta‘minlaydigan energiya tejovchi uskunalar, raqamli texnologiyalar va dasturiy mahsulotlarning o‘zaro bog‘liq kompleksini o‘z ichiga olgan avtomatlashtirilgan tashkiliy-texnologik boshqaruv tizimi tushuniladi.

Sanoat korxonasining energetika xo‘jaligini modernizatsiya qilish vazifalarini hal etishda an‘anaviy yondashuv eskirgan va nosoz ishlab chiqarish uskunalari yangisiga, energiyani tejaydigan uskunalarga almashtirish bo‘yicha yakka-yakka chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bunday “modernizatsiya” butun korxonada miqyosidagi energiya samaradorligining umumiy ko‘rsatkichlari dinamikasiga juda zaif ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada, korxonaning turli xil yoqilg‘i-energetika resurslari bo‘yicha energiya iste‘moli darajasi avvalgi holatda qolaveradi. Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni hisobga olgan holda, doimiy ishlaydigan integratsiyalashgan energiyani tejash tizimini barpo etishni nazarda tutuvchi kompleks yondashuv eng oqilona hisoblanadi.

Energiya samaradorligini kompleks oshirish rejalar tizimini ishlab chiqish yakunlangach, jamoa a‘zolari integratsiyalashgan energiya tejash tizimi arxitekturasini loyihalashga kirishadilar. Ushbu bosqichni amalga oshirishdan maqsad korxonaning ortiqcha energiya iste‘moli darajasini minimal xarajatlar bilan maksimal darajada kamaytirishga imkon beradigan IET arxitekturasini yaratishdir (4-rasm). Muallifning fikricha, uni loyihalashda To‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida faol rivojlangan zamonaviy raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan uskunalarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ularni arxitekturada qo‘llash eng zamonaviy raqamli texnologiyalar va kompleks yechimlar, jumladan sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali jarayonlarni avtomatlashtirish darajasini sezilarli oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu kontekstda IET umumiy arxitekturasida alohida kichik tizimlar o‘rtasida avtomatlashtirilgan o‘zaro aloqani tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi.



4-rasm. Integrallashgan energiya tejash tizimi modeli¹⁸

O'tkazilgan tadqiqot doirasida muallif tomonidan korxonada IET ni joriy etishdan kelib chiqadigan samaralar va ular bilan bog'liq manbalarning uchta asosiy turi: iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy samaralar bo'yicha o'z tasnifi ishlab chiqildi. Ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

IETni amalga oshirishning iqtisodiy samarasi ishlab chiqarish jarayonlarining energiya sarfini kamaytirish hisobiga iste'mol qilingan yoqilg'i-energetika resurslari uchun xarajatlarni qisqartirishdan iborat tejamkorlikdir. Ushbu samara strategik ahamiyatga ega, chunki ishlab chiqarishning yuqori energiya sarfi amalda mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. IET faoliyati doirasida texnologik ta'sirlar muhim ahamiyatga ega. korxonaning uskunalari va texnologik tizimlarining energiya ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. IET shakllanishida hosil bo'ladigan keyingi ta'sirlar guruhi ijtimoiy ta'sirlar hisoblanadi. Ushbu ta'sirlar guruhi tizimning korxonada ishchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilashga, korxonada energetika tizimidagi avariya bilan bog'liq turli darajadagi shikastlanish xavfini minimallashtirishga, shuningdek, soha xodimlari (energetiklar, muhandis-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar) mehnat sig'imini kamaytirishga va ish unumini oshirishga ijobiy ta'sirini aks ettiradi.

Zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari energiya sarfini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish maqsadida Energy Management System

¹⁸ Muallif ishlanmasi

(EMS) tizimlarini joriy etmoqda. EMS tizimlarini o‘rnatish orqali, korxonalar energiya sarfini 15% dan 40% gacha kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Misol sifatida, agar bir korxonada yillik 1,000,000 kWh energiya iste‘mol qilsa, EMS tizimi yordamida uning energiya sarfini 15% (150,000 kWh) dan 40% (400,000 kWh) gacha kamaytirish mumkin bo‘ladi. Yana boshqa misol tariqasida aytishimiz mumkin, agar bitta qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasi yilda 10 000 MWh energiya sarflasa, EMS tizimi joriy etish orqali bu sarfni 2 000-3 000 MWh gacha qisqartirish mumkin. Bu esa yillik energiya xarajatlarini 30-40% ga kamaytiradi.

“Ohangaronsement” aksiyadorlik jamiyatida tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2028-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlarini ishlab chiqish lozim. Ilmiy tadqiqotning ushbu bobida dissertatsiya obyektidan kelib chiqqan holda “Ohangaronsement” aksiyadorlik jamiyatida tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishning vaqt ta’siridagi nisbiy o‘zgarishini tahlil qilib, “STATA” dasturida orqali prognoz qilindi. Prognoz qilish uchun 2012-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrdagi “Ohangaronsement” aksiyadorlik jamiyatida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning hajmi to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlardan foydalanildi.

Muhokama qilinayotgan iqtisodiy munosabatni ifoda etish uchun eksponensial model tanlab olindi:

$$y = e^{b_0} + x^{1b_1} + L2 \cdot x^{2b_2}$$

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Stata” dasturi orqali tuzilgan

$$\ln y = 2.41 \ln x_1 + 0.067 L2 \cdot \ln x_2 - 29.11$$

tenglama orqali ifodalash mumkin. Mazkur regressiya tenglamasi biz taklif qilgan gipotezani asoslab beradi. Ishlab chiqarish hajmi bilan kelgusi davr xarajatlari o‘zgarish holati bilan sof tushum ekonometrik modellashtirildi.

Tanlab olingan dastur bo‘yicha hisoblangan 5 yillik prognoz natijalarini pessimistik va optimistik nuqtai nazardan quyidagicha talqin qilishimiz mumkin (7-jadval).

7-jadval

“Ohangaronsement” AJ da mahsulot ishlab chiqarishning prognoz ko‘rsatkichlari (mlrd so‘m)¹⁹

Yillar	Pessimistik	O‘rtacha	Optimistik
2025	40480,1	44977,9	53973,4
2026	53973,4	59970,5	71964,6
2027	65217,9	72464,3	86957,2
2028	78711,3	87457,0	104948,3

Mazkur yakuniy jadvaldan ko‘rish mumkinki, “Ohangaronsement” AJ da ishlab chiqarish hajmi 2028-yilda o‘rtacha 87457 mlrd so‘mni tashkil qilgan holda korxonaning umumiy mahsulot hajmi 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 3,5 barobarga oshishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion loyihalarni joriy etish strategiyasini ishlab chiqish uchun uning

¹⁹ Stata dasturi asosida muallif ishlanmasi

elementlarini operatsion siklni barcha biznes jarayonlari bo'yicha bir tekis taqsimlanishi, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va mahsulotni sotish zarurligini ta'kidlash lozim.

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan prognoz va ko'rsatkichlar asoslaridan innovatsion faoliyatni prognozlash va obyektiv baholash mexanizmi sifatida tarmoq darajasida foydalanish nafaqat aniq qurilish materiallari sanoati korxonalarining, balki butun mamlakatimiz sanoatining innovatsion faoliyatini samaradorligini oshiradi, bu esa O'zbekistonning jahon qurilish bozorida o'rnini mustahkamlashga imkon beradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqilgan:

1. Tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat tushunchalarining keng qamrovli sharhlari amalga oshirildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ta'riflari umumlashtirildi.

2. Uslubiy yondashuvga ko'ra "innovatsion faoliyat" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlovchi yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini yaratish va joriy etish jarayonini korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish va bozordagi raqobat ustunligini mustahkamlash jihatidan takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar o'rganilib, innovatsion faoliyatni baholashning ko'rib chiqilgan usullarining afzalliklari va kamchiliklarini umumlashtirildi.

3. Sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab olindi. Innovatsiyalarning tasnifiy guruhlarini taqsimlashda turlicha yondashuvlar tadqiq etilgan holda, qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarning turkumlanishi umumlashtirildi va tizimlashtirildi.

4. Xorijiy mamlakatlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yetakchi kompaniyalarning korporativ va innovatsion strategiyalarining asosiy tamoyillari va maqsadlari tadqiq etildi. Tadqiqot natijasida, innovatsion loyihalar uzoq muddatli istiqbolda o'sishining asosiy manbasi hisoblanishi, innovatsion loyihalarning asosiy yo'nalishlari 2 mijozlar uchun innovatsion yechimlar ustida ishlash, joriy ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va qurilish materiallarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni izlab topish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda loyihaviy yondashuv, innovatsiyalarni joriy etish jarayonining globallashuvi ekanligi aniqlandi.

5. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibida bugungi kunda 200 ga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo'lib, ushbu korxonalar tomonidan 2023-yilda O'zbekistonda 15,5 million tonna sement ishlab chiqarildi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sement miqdori 431 kg ga yetdi. 2024-yilda 37,2 trln so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Investitsiya dasturlari doirasida 2024-2026-yillarda qiymati 4,5 mlrd dollarlik 542 ta yangi loyiha amalga oshirish rejalashtirilgani aniqlandi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-4335-sonli qarorida belgilangan vazifani amalga oshirish maqsadida "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi qoshida Ilmiy-texnikaviy kengash tashkil etilgan. Uyushma huzuridagi Ilmiy-texnikaviy Kengash faoliyatini tahlil qilish natijalariga ko'ra kelib tushgan innovatsion loyihalar portfelini shakllantirishda bir necha bosqichli tahlildan o'tkazilishi aniqlandi. 2020-yildan 2023-yilgacha Kengashga jami 175 ta innovatsion loyihalar kelib tushgan, ulardan 39 tasi (22,2 foizi) moliyalashtirilib, amaliyotga joriy etilganligi aniqlandi.

7. "Ohangaronsement" AJ korxonasi innovatsion faoliyatini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati innovatsion faollik darajasini kompleks baholash, innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida korxonadan bajariladigan o'z ishlarini diversifikatsiya qilish ulushini baholash, ushbu ishlarni bajarish muddatlari va uzilishlar chastotasini baholash, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni sotishdan olinadigan iqtisodiy samarani baholash hisoblanadi. Ko'rsatkichlar tizimi korxonaning innovatsion faoliyatini, shu jumladan daromadli shartnomalarni bajarish doirasida amalga oshiriladigan faoliyatini baholashni taklif qiladi, bu esa asosiy xo'jalik faoliyatini yuritish doirasida mahsulotni ishlab chiqish bo'yicha ishlarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan korxonalarining asosiy farqini hisobga olish imkonini beradi.

8. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalarga investitsiya kiritishda jami kapital qo'yilmalarida ekologik innovatsiyalarga ajratiladigan ulush ($U_{EI} = 10-20\%$), daromadning ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritish ulushi ($U_{ETS} = 5-10\%$), ekologik standartlarga javob beradigan uskunalarni uchun ajratiladigan investitsiya (*yillik investitsiya budgetining $\geq 30\%$*) miqdoriy chegaralarini ta'minlash orqali atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish taklifi asoslandi.

9. Korxonaning energetika xo'jaligi tuzilmasini tahlil qilish asosida integrallashgan energiya tejashning tizimini shakllantirish uchun platforma sifatida foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Natijada energiya iste'molini monitoring qilish, joriy qilinayotgan energiya tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqish, rejalashtirish va samaradorligini baholash jarayonlarini amalga oshirish imkoniyati bilan korxonaning iqtisodiy va texnologik samaradorligini oshirishga erishilishi asoslangan. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida energiya tejamkorligini ta'minlovchi istiqbolli raqamli texnologiyalardan foydalanishda Energy Management System (EMS) tizimlarini joriy qilish hisobiga umumiy energiya sarfini kamaytirish ($15\% \leq EMS \leq 40\%$), sement va qurilish materiallari ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlar ulushi ($U_{ATJ} \geq 50\%$), raqamli simulyatsiya va modellashtirish orqali resurs tejamkorlikni oshirish ($RSM \geq 20\%$) orqali ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish taklifi asoslandi.

10. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish hajmining 2028-yilgacha mo'ljallangan ko'p omilli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. "Ohangaronsement" AJda ishlab chiqarish hajmi 2028-yilda o'rtacha 87457 mlrd so'mni tashkil qilgan holda korxonaning umumiy mahsulot hajmi 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 3,5 barobarga oshishi prognoz qilingan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.07.2022.I.16.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

КУРБАНОВА ШАХНОЗА ЮЛДАШБАЕВНА

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ
СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

08.00.03 – Промышленная экономика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии экономических наук (PhD)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2024.3.PhD/Iqt4329 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) веб-страница Ученого совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательный портал «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эшов Мансур Пулатович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Карриева Якутхон Каримовна
доктор экономических наук, профессор

Саидов Машъал Самадович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

**Самаркандский государственный университет
архитектуры и строительства**

Защита диссертации состоится в ____ часов « ____ » _____ 2025 года на заседании Научного совета DSc.03/30.07.2022.I.16.05 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № _____). Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: ((99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.

(протокол реестра № ____ от « ____ » _____ 2025 года.).

Ш.Э.Синдаров

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ж.С.Файзуллаев

Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

Т.С. Кучкоров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях цифровизации в мире ускоренными темпами осуществляется процесс инвестирования в инновации во всех сферах экономики. Согласно данным «Глобального инновационного индекса», «в 2023 году Швейцария (67,6%), Швеция (64,2%), США (63,5%), Великобритания (62,4%) и Сингапур (61,5%) заняли лидирующие позиции в мировом рейтинге по внедрению инноваций в национальную экономику».¹ Инновационная деятельность на предприятиях по производству строительных материалов имеет стратегическое значение в устойчивом развитии мировой экономики, поскольку позволяет внедрять ресурсосберегающие технологии, производить экологически чистую и энергоэффективную продукцию и повышать конкурентоспособность. Передовые инновации стимулируют автоматизацию производственных процессов в строительной отрасли, создание высокопрочных и перерабатываемых материалов, а также освоение новых сегментов рынка. В то же время инновационные решения в промышленности строительных материалов будут способствовать ускорению процессов урбанизации, повышению экономической эффективности инфраструктурных проектов и достижению приоритетных целей развития в условиях глобального изменения климата.

В мировом масштабе проводится множество исследований, направленных на повышение эффективности инновационной деятельности в промышленности строительных материалов. Разработка и развитие эффективных методов и способов внедрения принципов эффективности инновационной деятельности, совершенствование организационных аспектов внедрения стратегий инновационного развития, соответствие современным требованиям качества продукции, развитие организационно-экономического механизма инновационной деятельности, совершенствование методов оценки и определения ее эффективности являются одними из приоритетных направлений научных исследований, проводимых в этой области.

По мере увеличения объемов строительных работ в Узбекистане растет и потребность в производстве строительных материалов, которое считается важнейшим поставщиком материалов в этой отрасли. В условиях глобализации экономики для удовлетворения потребностей населения стран в строительных материалах и дальнейшего развития производства строительных материалов особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на повышение качества продукции на основе инноваций, повышение эффективности инновационной деятельности на предприятиях отрасли. Узбекистан занял 82-е место в рейтинге «Глобальный инновационный индекс» с показателем 26,2 процента. Следует отметить, что наша страна сохранила свой результат в этом рейтинге в 2022 году, что является значительным ростом

¹ www.wipo.int/global_innovation_index/en/2023/

по сравнению с 86-м местом в 2021 году². Именно этот аспект позволил нашей стране войти в категорию стран с «Экономикой, где инновации развиваются быстрыми темпами». В эффективной реализации поставленных задач важное значение имеют научные исследования, направленные на использование модели отбора и оценки перспективных инновационных проектов с учетом приоритетных направлений развития инновационной деятельности предприятия, инвестирование в экологически ориентированные инновации с целью повышения эффективности деятельности по охране окружающей среды на предприятиях промышленности строительных материалов, модернизацию производственного процесса за счет использования перспективных цифровых технологий, обеспечивающих энергосбережение на предприятиях по производству строительных материалов, разработку многофакторных прогнозных показателей объема производства с учетом факторов, влияющих на развитие предприятий по производству строительных материалов.

В пункте 2 Указа Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года No УП-158 О Стратегии «Узбекистан – 2030» под названием «Обеспечение благосостояния населения за счет устойчивого экономического роста» в 48-й цели «Развитие «драйверных» отраслей промышленности и полное задействование промышленного потенциала регионов» отдельно определена задача «Увеличить объем производства строительных материалов в 2 раза и расширить разработку новых видов энергосберегающих материалов». Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 февраля 2019 года No ПП-4198 «О мерах по коренному совершенствованию и комплексному развитию промышленности строительных материалов», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 23 мая 2019 года No ПП-4335 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2022 года No ПП-139 «О дополнительных мерах по поддержке жилищного строительства и промышленности строительных материалов», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 17 ноября 2022 года No ПП-425 «О мерах по совершенствованию механизмов контроля при реализации строительных проектов, дальнейшему повышению открытости и прозрачности процесса», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

